

Begmatova Tahmina Sunnat qizi
“Termiz” Davlat muzey- qo’riqxonasi
Fond ishi bo’limi bosh mutaxasisi

MUZEYLAR FAOLIYATIDAGI ZAMONAVIY INNOVATSIYALAR

Annotatsiya: Hozirgi kunda muzeylarga tashrifchilar sonini oʻrttirish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada jahondagi muzeylar misolida art-doʻkonlarning muzey muvaffaqiyatini shakllantirishning muhim elementi sifatidagi oʻrni va ahamiyati koʻrib chiqiladi va kerakli xulosalar keltiriladi.

Kalit soʻzlar: Art-doʻkon, muzey, tashrifchi, koʻrgazma, marketing, notijorat, menejment, marketing muhiti, moliyalashtirish.

Bugungi global taraqqiyot sharoitida axborot texnologiyalari ahamiyatini oshirishning yanada zamonaviy, innovatsion usullarini izlab topish, axborotlashtirish jarayoniga har tomonlama koʻmaklashish, ularni hayotga keng joriy etish davlat faoliyatining muhim strategik yoʻnalishlaridan biriga aylanmoqda. Barcha sohalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal qoʻllash, mazkur tarmoqni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, muzeylar sohasida ham hozirgi kunning ilgʻor axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalangan holda yangi yoʻnalishlarda ish olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Muzey art doʻkoni – muzey ichidagi sovgʻalar doʻkoni boʻlib, odatda u yerda muzeydagi asarlarning reproduksiyalari, rasmlari, otkritkalar, muzey kolleksiyalariga oid kitoblar va turli xil esdalik sovgʻalari mavjud boʻladi. Sanʼat muzeylaridagi art doʻkonlar koʻpincha sanʼat asarlaridan ilhomlangan yoki ularni takrorlaydigan kiyim va bezak buyumlarini oʻz ichiga oladi. Muzey doʻkonlari koʻpincha kirish yoki chiqish yaqinida joylashadi. Vaqtinchalik maxsus koʻrgazmalar koʻpincha oʻzlarining sovgʻa doʻkonlariga ega. Muzey art doʻkonlari koʻpincha muzeylar uchun muhim daromad manbalari boʻlib xizmat qiladi. Dunyoda muzey doʻkonlari Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo boʻlgan. Avvaliga ular koʻpincha kichik va noprofessional tarzda boshqarilgan. Ular 1980-yillarda muhim daromad manbalariga aylandi. Muzey art doʻkonlari muzeyga tashrif buyuruvchilar qiziqishining muhim qismiga aylandi. Darhaqiqat, baʼzi tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, tashrif buyuruvchilar koʻrgazmalarga qaraganda doʻkon, kafe va hokazolarda koʻproq vaqt oʻtkazadilar. Eng yirik muzeylarning ish tajribasini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, esdalik sovgʻalarini sotish katta daromad keltirmaydi, ammo muzey doʻkonini tashkil etish majburiydir. Buning sababi shundaki, muzey doʻkoni jamoatchilik bilan ishlashda, muzeyning mashhurligini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi va uning muvaffaqiyatining muhim elementi hisoblanadi. Muzey art doʻkonini tashkil qilishda eʼtibor berish kerak boʻlgan asosiy mezonlarni shakllantirish lozim boʻladi.

Hozirgi kunda dunyo muzeylarida ekspozitsiya amaliyotida informatsion texnologiyalardan jadal foydalanib kelinmoqda. Bu esa oʻz navbatida, muzeylarga keng ommaning qiziqishi ortishi hamda innovatsion maʼrifiy materiallarni va ilmiytadqiqot ishlarini olib borish uchun vositalar yaratish imkonini beradi. Muzey ishining yetakchi va jadal surʼatlar bilan rivojlanayotgan yoʻnalishlaridan biri sifatida madaniy-maʼrifiy faoliyatni koʻrsatish mumkin. Muzeyning madaniy-maʼrifiy faoliyatining avvali va yetakchi shakli ekskursiyadir (Oʻsha asar. — B. 104). Audiogid nima? «Audiogid» — bu maxsus moslama boʻlib, tashrifchi vaqtinchalik foydalanish uchun olib, faqatgina maʼlum auditoriya uchun maʼlumotni ovoz shaklda yetkazilishidir. Mazkur taʼrif XX asr audiogidlarga berilgan boʻlib, hozirgi XXI asrda mazkur taʼrif biroq oʻz mohiyatini yoʻqotganini koʻrish mumkin. Mazkur davr oraligʻida audiogidlar katta oʻzgarishlarga uchradi. Jumladan, audiogidlarni muomalaga kiritishning dastlabki tarafdorlaridan Marshall Maklyuen va Villem Sandbergni aytib oʻtish joiz. Ular audiogidlarni muzeylarda qoʻllash ahamiyatini yuqori baholaganlar hamda oʻzlari faoliyat yuritgan (1945–1962 yillar) Stedelijk muzeyida dastlabki audioturlarni taqdim etganlar (Tallon L. Walker K. Digital Technologies and the Museum Experience: Handheld Guides and Other Media. Alta Mira Press, 2008. — B. x.). Audiogidlarning koʻp nusxada keng ommaga ilk namoyishi 1952-yil Amsterdam muzeyida, 1953-yil

Nyu-Yorkda va boshqa davlatlarda foydalanilib, ommalashgan. Dastlabki audiogidlar ultraqisqa to‘lqinlar orqali yopiq halqa doirasida ma’lumotlar uzatilgan. To‘lqin galere-yalar atrofiga o‘rnatilgan antenna orqali tarqatilgan, tashrifchi magnitofon yordamida ma’lumotlarni naushnikda eshitishi mumkin bo‘lgan. Golland, fransuz va nemis tillaridagi ma’lumotlar esa magnit lentalar yozilgan bo‘lib, halqa doirasidagi tinglovchilar ayni shu doiradagi ma’lumotlarni eshitishlari mumkin bo‘lgan (O‘sha asar. — B. XII). Texnologiyalar rivojlangani sari ularning ham imkoniyatlari kengayib bordi. 1960-yillarga kelib, audiogidlarda endi raqamlar orqali ma’lumotlarni tanlash qulayligi kiritildi (Tallon L. AAM Annual Conference, Baltimore. May 21, 2013). 1990-yillarga qadar foydalanilgan audiogidlarning aksariyat modellari magnitofonlar asosida tashkil etilgan bo‘lib, faqatgina audio sharhlarni uzatish uchun xizmat qilgan (С. Игнащенко. Мобильные экскурсионные проекты в музеях мира. Вчера-Сегодня-Завтра. 2012 — С. 4). Mobil texnologiyalarning vujudga kelishi bilan muzeylar multimediya vositalarining yangi imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. iPod-iPhone-iPad-smartfonlar muzeylardagi ekskursion texnologiyalarni yangi bosqichga ko‘tardi. Hozirgi kunda audiogidlarning bir necha turlari mavjud bo‘lib, turli sistemalarda ishlashga mo‘ljallangan, biroq ularning yagona umumiy maqsadi muzeylar uchun: qulaylik, sifat, iqtisod, reklama, kengroq yoritish, tashrifchini faollashtirish bo‘lsa, tomoshabinlarga esa individuallashtirish, qulaylik, iqtisod, o‘yin shaklining mavjudligi, ma’lumotlarning ko‘pligini ularning yagona birlashtiruvchi maqsadlari sifatida sanab o‘tish mumkin. Bular jumlasiga QR kodlar yordamida ishlovchi mobil gidlar, Flash Card texnologiyasida hamda GPS tizimida ishlovchilar, turgidlar (ekskursovod mikrofondagi gapirayotganda tinglovchilar ularni naushniklar orqali eshitishi), ma’lumot eksponatlarining yaqiniga joylashtirilgan audiogidlar kabi turlari mavjud. Hozirgi kunda dunyoning qator rivojlangan mamlakatlari muzeylarida quyidagi audiogidlardan foydalanadilar. Dunyo muzeylarining audiogidlar bilan jihozlanganligini o‘rganish jarayonida o‘tkazilgan 2018-yildagi so‘rov ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo muzeylarining 56 foizida mobil ekskursion loyihalar amalga oshirilgan bo‘lsa, 48% muzeylar uni rejalashtirayotganliklarini, 54% muzeylar umuman rejalariga kiritmaganlarini qayd etib o‘tganlar. Bunday texnologiyalarni joriy etgan muzeylar sohaviy tahlil etilganda tasviriy san’at muzeylari va galereyalar hamda fan-texnika muzeylari kesimiga mobil loyihalar to‘g‘ri kelishini kuzatish mumkin. Mazkur muzeylarda ikki turdagi mobil ekskursiya loyihalari tashrifchilarga taqdim etiladi. Birinchisi: tashrifchilarga vaqtinchalik foydalanish uchun uskuna olib foydalanish; ikkinchisi: tashrifchilar faqat o‘zlarining shaxsiy smartfonlaridan foydalanishlari mumkin bo‘ladi. Hozirgi kunda, yurtimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sohalarga keng targ‘ib etish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Misol uchun, Toshkent bo‘ylab sayohat avtobusi 8 tilda ekskursiyani tinglash imkoniyatini beruvchi audiotur bilan jihozlangan, Samarqand shahri bo‘ylab tashkil etiladigan ba’zi turlarda mikrofonli audiogidlardan foydalanadilar. Muzeylar qatorida dastlabkilardan bo‘lib, «Aloqa tarixi muzeyi»da ham mobil audiogidlardan foydalanish joriy etilgan. Muzey mutaxassislari va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari tomonidan «android» tizimida ishlovchi smartfonlar va planshetlar uchun «Mobil audiogid» dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur yurtimizda bunday yo‘nalishda qilinayotgan ishlarning dastlabki qadamlaridandir (O‘zbekiston Respublikasi elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar davlat reyestrda 2015-yil 16-iyunda Toshkent shahrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Raqami DGU 03194). Muzeyga tashrif buyuruvchiga mazkur dastur o‘rnatilgan mobil qurilmasi vaqtinchalik foydalanishga beriladi. Dastur tugmasi ishga tushirilganda muzey haqidagi qisqacha ma’lumot oynasi ko‘rinadi. Tashrifchida ekskursiya matnini 3 tilda, ya’ni o‘zbek, rus va ingliz tillarida eshitish imkoniyati mavjud. Dastur imkoniyati doirasida boshqa xorijiy tillarni ham qo‘shish mumkin. Foydalanuvchi muzey eksponatlarining identifikatsiya raqamini kiritib ekskursiya ma’lumotlarini tanlangan tilda eshitishi hamda shu eksponatning turli ko‘rinishdagi rasmini ham ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Urinov, Sh K. "The Main Criteria Of Cultural Centers In The Formation Of Creative Ability." Multidisciplinary Journal Of Science And Technology 3.5 (2023): 52-59.

2. Ko'Rinov, Sh, And G. Bozorboyeva. "Madaniyat Sohasida Pablik Rileyshnz (Jamoatchilik Bilan Aloqalar) Va Reklama." *Technical Science Research In Uzbekistan* 1.4 (2023): 217-224.
3. O'Rinov, Sh K., And E. Sultonmurodova. "Menejning Madaniyat Sohasidagi Kasbiy Malakasi, Uslublari Va Rejalashtirish." *Technical Science Research In Uzbekistan* 1.4 (2023): 225-230.
4. Ko'Rinov, Sh. "Loyiha Menejmentining Asosiy Tamoyillari." *Technical Science Research In Uzbekistan* 1.4 (2023): 136-143.
5. Ne'Matullayeva, Sh. "Madaniyat Markazlarining Professional Jamoalar Bilan Hamkorlikni Tashkil Etish Masalalari." *Педагогика и Психология в Современном Мире: Теоретические и Практические Исследования* 2.3 (2023): 25-29.
6. Ko'Rinov, Sh, And S. Sadullayeva. "Muzeyshunoslik Istiqbollari." *Ijodkor O'Qituvchi* 3.26 (2023): 97-101.
7. Orinov, Sh K., And S. Rozimurodova. "Maqom San'Atiga E'Tibor Milliy San'Atimizga E'Tibor." "Online-Conferences" Platform. 2023.
8. O'Rinov, Sh K., And G. Halimova. "Havaskorlik Badiiy Jamoalari Tushunchasi Va Funktsional Vazifasi." *International Conferences*. Vol. 1. No. 2. 2023.
8. Korinov, Sh, And M. Ismoilova. "Boshqaruv Konsepsiyasi Va Asosiy Tushunchalar." *Pedagogs Jurnal* 26.2 (2023): 62-64.
9. Korinov, Sh, And M. Hasanova. "Boshqaruv Madaniyati Tarkibi Funktsiyalari Mezonlari-Madaniyat Markazlari Misolida." *Pedagogs Jurnal* 26.2 (2023): 65-66.
10. Korinov, Sh, And M. Habibullayeva. "Art Menejer-Marketing Faoliyatining Asosiy Yo'Nalishlari Sifatida." *Pedagogs Jurnal* 26.2 (2023): 59-61.
11. Korinov, Sh, And N. Jahongirova. "O'zbekistonda Teatr Faoliyatida Marketingning Rivojlanishi." *Pedagogs Jurnal* 26.1 (2023): 161-162.
12. Korinov, Sh, And M. Raupova. "Bozor Iqtisodiyoti Sharoitida Muzeylarning Rivojlanish Xususiyatlari." *Pedagogs Jurnal* 26.1 (2023): 116-118.